



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

E.I.Ergashev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Email: ergashev@gmail.com

Qarayev Anvar Botirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: anvarqarayev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, aylanma mablag'lardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish hamda investitsion faoliyatni rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, raqobat muhitida korxonalarining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida to'qimachilik korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, moliyaviy barqarorlik, kreditlash, subsidiyalar, klaster, investitsiya, likvidlik, eksport, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: This article examines the issues of ensuring the financial stability of textile industry enterprises. The study analyzes internal and external factors affecting the financial condition of enterprises, efficient use of working capital, cost optimization, and the development of investment activities. The importance of strengthening financial security, increasing export potential, and implementing modern management mechanisms in a competitive environment is also highlighted. Based on the research findings, practical recommendations and proposals aimed at improving the financial stability of textile enterprises have been developed.

Keywords: textile industry, financial stability, crediting, subsidies, cluster system, investment, liquidity, export.

Абстрактный: В данной статье исследуются вопросы обеспечения финансовой устойчивости предприятий текстильной промышленности. В ходе исследования проанализированы внутренние и внешние факторы, влияющие на финансовое состояние предприятий, эффективность использования оборотных средств, оптимизация затрат и направления развития инвестиционной деятельности. Кроме того, раскрыта роль укрепления финансовой безопасности предприятий, повышения экспортного потенциала и внедрения современных механизмов управления в условиях конкурентной среды. По результатам исследования разработаны практические предложения и рекомендации по повышению финансовой устойчивости предприятий текстильной отрасли.

Ключевые слова: текстильная промышленность, финансовая стабильность, кредитование, субсидии, кластер, инвестиции, ликвидность, экспорт, цифровая экономика.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahon iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati strategik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tarmoqlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishi nafaqat sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki mamlakatlarning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi bugungi kunda global iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda to'qimachilik sanoati korxonalari kuchayib borayotgan global raqobat, xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi, logistika xarajatlarning ortishi hamda moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning oshishi kabi omillar ta'sirida faoliyat yuritmoqda. Bu esa korxonalar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni samarali boshqarish hamda kapital tuzilmasini optimallashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, to'qimachilik korxonalarining moliyaviy barqarorligi bir necha asosiy omillar bilan belgilanadi. Jumladan, moliyaviy resurslarning yetariligi, aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi muvozanat, korxonalar daromadlarining barqarorligi hamda davlat tomonidan taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, moliya bozori rivojlanish darajasi va moliyaviy vositachilar faoliyati ham korxonalarining investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

So'nggi yillarda jahon amaliyotida to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar kengayib bormoqda. Ushbu tadqiqotlar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli iqtisodiyot elementlarini keng qo'llash hamda eksport salohiyatini oshirish orqali korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan. Shu bilan birga, innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklar, kredit yuklamasining ortishi hamda aylanma mablag'lar yetishmovchiligi kabi muammolar ham dolzarb ilmiy masalalar sifatida o'rganilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportni kengaytirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda to'qimachilik sanoati mamlakat sanoat ishlab chiqarishining sezilarli ulushini tashkil etib, eksport tushumlarining asosiy manbalaridan biriga aylangan. Shu bilan birga, mamlakatda klaster tizimining joriy etilishi, ishlab chiqarish zanjirining to'liq integratsiyalashuvi hamda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaytirilishi tarmoq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korxonalar moliyaviy boshqaruvi, risklarni baholash tizimi hamda moliyaviy rejalashtirish jarayonlarida hali ham bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotining hozirgi murakkab va o'zgaruvchan geosiyosiy sharoitida to'qimachilik korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan milliy moliya tizimining barqarorligiga bog'liqdir. Moliya tizimining samarali ishlashi korxonalarining kredit resurslariga

kirishini osonlashtiradi, investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, moliyaviy barqarorlik nafaqat ichki iqtisodiy omillar, balki tashqi omillar — global bozor kon'yunkturasi, valyuta kurslari o'zgarishi, eksport bozorlari talabi hamda xalqaro raqobat darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli to'qimachilik korxonalarida zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish, risklarni kompleks baholash hamda innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda.

Ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun kapital tuzilmasini optimallashtirish, likvidlikni oshirish, investitsion faoliyatni kengaytirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazaridan, korxonalarida zamonaviy moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekistonda to'qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirishning mavjud xususiyatlarini hisobga olgan holda tarmoq subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqotlardan foydalanish hamda korxonalarda moliyaviy jarayonlarni boshqarish sifatini yaxshilash va rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning bugungi murakkab va noaniq geosiyosiy sharoitlarida to'qimachilik korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning hal qiluvchi shartlaridan biri moliya tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishi bo'lib, uning mexanizmlari darajasi va sifati moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, raqobatbardosh bozor mexanizmlari va vositalariga asoslangan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning davom etayotgan jarayonini hisobga olgan holda, moliyaviy barqarorlikning ajralmas elementi sifatida moliyaviy aspektning ahamiyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

To'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishiga aylangan. Jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayishi, xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi hamda eksport bozorlaridagi beqarorlik to'qimachilik korxonalarining moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tadqiqotlarda to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligi kapital tuzilmasi, likvidlik darajasi va investitsion faollik bilan chambarchas bog'liqligi qayd etilgan. Jumladan, Jahon banki ekspertlari sanoat korxonalarida moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [1]. Tadqiqotlarda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida baholangan.

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi makroiqtisodiy barqarorlik bilan uzviy bog'liq ekanligi asoslab berilgan [2]. Mualliflarning fikricha, inflyatsiya darajasi, kredit siyosati va valyuta kurslaridagi o'zgarishlar ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy holatiga bevosita ta'sir kўrsatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash va ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, eksport hajmini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3]. Ushbu strategik yo'nalishlar to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida to'qimachilik korxonalarida xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va moliyaviy risklarni boshqarish masalalari keng yoritilgan [4]. Tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va energiya tejamlor ishlab chiqarishni rivojlantirish moliyaviy samaradorlikni oshirishning muhim omili sifatida ko'rsatilgan.

So'nggi ilmiy ishlarda eksport faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy barqarorlikka ta'siri ham tahlil qilingan. Tadqiqotchilar eksport geografiasini diversifikatsiya qilish va xalqaro standartlarni joriy etish korxonalar daromadligini oshirishini qayd etgan [5]. Ayniqsa, tayyor tekstil mahsulotlari eksportini kengaytirish orqali valyuta tushumlarini ko'paytirish mumkinligi asoslab berilgan.

To'qimachilik sanoatida raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari ham zamonaviy tadqiqotlarda alohida o'rin egallamoqda. Xususan,

raqamli boshqaruv tizimlari va avtomatlashtirilgan moliyaviy monitoring vositalari korxonalarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda muhim omil sifatida baholangan [6]. Mualliflarning fikricha, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi.

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda bank kreditlari va investitsiya resurslaridan samarali foydalanish masalalari o'rganilgan [7]. Unga ko'ra, uzoq muddatli investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va korxonalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarida korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, eksportni rag'batlantirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlariga alohida urg'u berilgan [8]. Bu esa tarmoq korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va investitsion faollikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega [9].

hisoblanadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur tadqiqotda to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda ilmiy bilishning tizimli, qiyosiy va iqtisodiy-statistik usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning sanoat korxonalarini moliyaviy boshqaruvni, moliyaviy barqarorlik, investitsion faoliyat va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga oid ilmiy qarashlari nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot davomida analiz va sintez usullari yordamida to'qimachilik korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribasi solishtirildi hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning samarali mexanizmlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, iqtisodiy-statistik tahlil usullari asosida to'qimachilik sanoatining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati, rentabellik darajasi va investitsion faolligi tahlil qilindi. Tadqiqotda umumlashtirish, guruhlash va iqtisodiy talqin qilish usullaridan foydalanilib, korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga ta'sir etuvchi muhim omillar baholandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, iqtisodiy va moliyaviy hisobotlar, xalqaro tashkilotlar materiallari hamda ilmiy maqolalar tashkil etdi. Olingan natijalar asosida to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalarlar (Analysis and results/Анализ и результаты).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari ta'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda tarmoqning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan qator muhim chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, gazlama, trikotaj mato hamda tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish va bo'yash uchun zarur asbob-uskunalarini xarid qilish maqsadida xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlarning 7 million AQSh dollaridan ortiq bo'lmagan qismi bo'yicha foiz xarajatlarning 6 foiz banddan yuqori qismi, biroq 5 foizdan oshmagan miqdorda kompensatsiya qilinishi nazarda tutilgan. Ushbu mexanizm korxonalar moliyaviy yukini kamaytirish, investitsion faollikni oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur Farmon doirasida respublika to'qimachilik sanoatini jadal rivojlantirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ularni xalqaro bozorlarga faol yo'naltirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu bilan birga, to'qimachilik sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, ishlab chiqarish tarkibini yuqori texnologiyali mahsulotlarga qayta yo'naltirish hamda boshqaruv tizimini ilg'or menejment yondashuvlari asosida takomillashtirish muhim vazifa sifatida qo'yilgan.

Tarmoq korxonalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish maqsadida samarali institutsional mexanizmlarni joriy etish zarur hisoblanadi. Xususan, standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish, sinov laboratoriyalarini modernizatsiya qilish

hamda akkreditatsiya tizimini takomillashtirish orqali mahsulot oshirish sifatini oshirish imkoniyati kengayadi.

Bundan tashqari, tarmoqda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali ichki va tashqi bozorlar holati hamda rivojlanish tendensiyalari to'g'risida tezkor va ishonchli axborot olish tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa korxonalar strategik qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi hamda raqobatbardoshlikni oshiradi.

To'qimachilik sanoatini rivojlantirishda klaster yondashuvi alohida ahamiyatga ega bo'lib, paxta xomashyosini yetishtirishdan boshlab uni qayta ishlash, ishlab chiqarish va tayyor mahsulotni eksport qilishgacha bo'lgan integratsiyalashgan tizimni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu model ishlab chiqarish zanjirining uzluksizligini ta'minlash bilan birga, qo'shilgan qiymat ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yuqori sifatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport hajmini kengaytirish, milliy brendlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish maqsadida innovatsion texnologiyalar, nou-xau hamda zamonaviy dizayn yechimlarini ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etish zarur hisoblanadi. Bu esa tarmoqning global raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy barqarorlik korxonalarining moliyaviy mustaqilligi va uzoq muddatli rentabelligi bilan belgilanadi. Xalqaro tajribada, xususan, "Inditex" kabi yirik kompaniyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va logistika tizimini optimallashtirish orqali barqaror iqtisodiy natijalarga erishgan.

Ijtimoiy barqarorlik esa mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlar manfaatlarini himoya qilish va jamiyat oldidagi mas'uliyatni kuchaytirish orqali ta'minlanadi. Masalan, "Patagonia" kompaniyasi ekologik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslangan ishlab chiqarish modelini joriy etgan bo'lib, bu yondashuv tarmoqda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, korxonalar ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qilgan holda mahalliy jamoalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, xayriya loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda barqaror rivojlanish dasturlarini amalga oshirish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. To'qimachilik korxonalarining iqtisodiy barqarorligi esa ularning moliyaviy mustahkamligi, bozor talablariga moslashuvchanligi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir.

Masalan, "Nike" kompaniyasi o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishda ekologik jihatdan toza materiallardan foydalanish bilan bir qatorda energiya samaradorligini oshirishga ham alohida e'tibor qaratadi. Kompaniyaning barqarorlik strategiyasi ishlab chiqarish zanjirida ekologik yuklamani kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston to'qimachilik sanoatida faoliyat yurituvchi korxonalar so'nggi yillarda moliyaviy natijalar bo'yicha ijobiy tendensiyalarni namoyon etmoqda. Xususan, tarmoq korxonalarining o'rtacha rentabelligi darajasi 12–17 foiz oralig'ida shakllangan bo'lib, bu sektorning iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanish bosqichiga kirayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim yirik ishlab chiqaruvchi korxonalar, jumladan "Uztex" va "And Teks" kompaniyalari yillik sof foydani 25 milliard so'mdan ortiq darajaga yetkazishga muvaffaq bo'lgan. Bu holat tarmoqda ishlab chiqarish samaradorligi, eksport salohiyati hamda boshqaruv tizimining takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Tijorat banklari nuqtayi nazaridan revolver kreditlash mexanizmi ham bir qator strategik va iqtisodiy afzalliklarga ega. Avvalo, mazkur kreditlash turi banklar va mijozlar o'rtasida uzoq muddatli, barqaror hamda ishonchli hamkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, u kredit portfelining diversifikatsiya darajasini oshirib, moliyaviy risklarni kamaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari, aylanma mablag'larning tezkor aylanishi kredit resurslarining qaytarilish tezligini oshiradi va bank tizimining umumiy likvidligi hamda moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, revolver kreditlash mexanizmi korxonalarining operatsion faoliyatini uzluksiz moliyalashtirish imkonini berib, ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta'minlashda muhim moliyaviy instrument sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, to'qimachilik korxonalarining investitsion jozibadorligi ortadi hamda ularning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

1-jadval
O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi korxonalarini bo'yicha ma'lumot¹

Yillar	Eksport hajmi (mlrd. AQSh dollari)	Yillik o'sish darajasi (%)	Revolver kredit (mln. so'm)	Imtiyozli davr (oy)
2019	1.3	—	250	6
2020	1.5	115.0	280	6
2021	2.0	133.3	300	6
2022	2.9	145.0	400	6
2023	3.1	107.0	450	6
2024	2.6	84.0*	350	6
2025	2.5	96.0*	300	6

O'zbekiston to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksporti 2019-yilda 1,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 2,5 mlrd AQSh dollariga yetganini kuzatish mumkin. Bu esa bazis yilga nisbatan eksport hajmining deyarli ikki barobarga oshganini ko'rsatadi. Mazkur o'sish tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati kengayganligi, eksport geografiyasi diversifikatsiyalashganligi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini kuchayganligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, to'qimachilik sanoati eksportining barqaror o'sishi O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida ushbu tarmoqning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish va ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash maqsadida eksportdan undiriladigan yig'imga hamda ishlab chiqarish doirasida xarid qilingan texnologik uskunalarni qiymatini qoplashga qaratilgan subsidiyalash mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki eksport jarayonida moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlari korxonalar rentabelligini oshirish va investitsion faollikni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari joriy etish orqali xalqaro standartlarga mos, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyati kengayadi.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari tomonidan to'qimachilik ishlab chiqarish korxonalarini va klasterlarning qisqa muddatli investitsion loyihalarini moliyalashtirish hamda aylanma mablag'larini to'ldirish uchun revolver kreditlash mexanizmini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Revolver kreditlash — bu qarz oluvchiga belgilangan kredit limiti doirasida mablag'lardan qayta-qayta foydalanish imkonini beruvchi moliyaviy instrument bo'lib, u korxonalarining moliyaviy moslashuvchanligini sezilarli darajada oshiradi.

Revolver kreditlash mexanizmining asosiy afzalligi shundaki, korxonalar aylanma mablag'larni o'z ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiq ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, kredit mablag'lari ishlatiladi, qaytariladi va keyinchalik qayta jalb etiladi. Bu holat ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, xomashyo xaridi, yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash, ish haqi to'lovlari va boshqa operatsion xarajatlarni moliyalashtirishda ushbu kredit turi samarali vosita hisoblanadi.


Bundan tashqari, revolver kreditlash korxonalar likvidlik darajasini oshirishda muhim moliyaviy instrument sifatida xizmat qiladi. Likvidlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi korxonaning to'lov qobiliyatini mustahkamlashga olib keladi. Moliyaviy barqarorlikning asosiy indikatorlaridan biri bo'lgan joriy likvidlik koeffitsienti aynan ushbu mexanizm orqali optimal darajada ushlab turilishi mumkin. Natijada korxonalar qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Revolver kreditlashning yana bir muhim jihati foiz xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatidir. An'anaviy kreditlash tizimida korxonalar ajratilgan kreditning to'liq summasi uchun foiz to'laydi. Revolver kreditlashda esa faqat foydalanilgan qism uchun foiz hisoblanadi. Bu esa moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlab, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi hamda korxonalar rentabelligini oshiradi.

To'qimachilik sanoatida klaster tizimining rivojlanishi ham revolver kreditlash mexanizmini joriy etish zarurati yanada kuchaytiradi. Klaster tizimi doirasida fermer xo'jaliklari, qayta ishlovchi korxonalar va eksportyor subyektlar o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Bunday tizimda pul oqimlarining uzluksizligi muhim ahamiyat kasb etadi. Revolver kreditlash esa klaster ichidagi moliyaviy hisob-kitoblarni tezlashtiradi, to'lov zanjiridagi uzilishlarning oldini oladi va ishlab chiqarish jarayonining barqaror ishlashini ta'minlaydi.

¹ Muallif ishlanmasi

Qisqa muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirishda ham revolver kreditlash alohida ahamiyatga ega. To'qimachilik korxonalarida modernizatsiya jarayonlari, yangi buyurtmalarni bajarish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish ko'pincha qisqa muddatda amalga oshiriladi. Ushbu sharoitda revolver kreditlashning moslashuvchanligi va tezkorligi muhim ustunlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa korxonalarining bozor talablariga tez moslashishini ta'minlaydi.



1-rasm. O'zbekistonning 2,5 mlrd. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti (2024-yil)

1-rasmda mamlakatimizda 2024-yilda qariyb 2,5 mlrd AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilingani aks etgan. Jumladan, ip-kalava eksporti hajmi 1,2 mlrd dollarni, tayyor to'qimachilik mahsulotlari esa 1,1 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar tarmoq eksport tarkibida yetakchi ulushga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu holat to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish uchun sezilarli salohiyat mavjudligini anglatadi.

"SilkLine" to'qimachilik korxonasi 2021-yilda ishlab chiqarish quvvatining atigi 65 foizidan foydalangan bo'lsa, keyingi yillarda amalga oshirilgan texnologik modernizatsiya natijasida bu ko'rsatkich 2023-yil oxiriga kelib 82 foizga yetgan. Natijada xarajatlar samaradorligi 9,7 foizga oshgan bo'lib, bu korxonalar moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, sektor korxonalarining faqat 24 foizi raqamli boshqaruv elementlarini to'liq joriy etgan. Bu holat logistika jarayonlari va xarajatlarni boshqarish samaradorligining past darajada ekanligini ko'rsatadi. Biroq raqamli texnologiyalarni faol qo'llagan korxonalarda ishlab chiqarish hamda yetkazib berish zanjirlarining optimallashtirilishi hisobiga o'sish sur'atlari o'rtacha ikki baravargacha tezlashgan.

Mavjud iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha deskriptiv statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2019–2023-yillar mobaynida O'zbekistonning 20 dan ortiq to'qimachilik korxonalarini o'rtasida rentabellik darajasining o'rtacha yillik qiymati $\bar{R} = 15,2$ foizni tashkil etgan, standart og'ish esa $\sigma = 4,3$ foiz atrofida qayd etilgan. Bu esa korxonalar o'rtasida moliyaviy barqarorlik darajalarida sezilarli tafovut mavjudligini bildiradi.

Mazkur natijalar korxonalarining operatsion salohiyati va ishlab chiqarish quvvatlari o'sib borayotganini ko'rsatganda, iqtisodiy barqarorlik faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki moliyaviy oqimlar, rentabellik darajasi hamda innovatsion investitsiyalar bilan uyg'un holda shakllanishi zarurligini tasdiqlaydi.

Hozirgi sharoitda to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanib, uning barqaror rivojlanishi korxonalar moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liqdir. Tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari — ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, xomashyo resurslarining mavsumiyliigi, eksportga yo'naltirilganlik hamda aylanma mablag'larga yuqori ehtiyoj — zamonaviy moliyaviy boshqaruv instrumentlarini joriy etishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Literatury/References):

- World Bank, Industrial Enterprises and Financial Stability Report, World Bank Publications, 2024.
- International Monetary Fund, Macroeconomic Stability and Industrial Development, IMF Report, 2023.
- "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2023.
- Abdullayev Sh., "Sanoat korxonalarida moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish", Iqtisodiyot va ta'lim, №4, 2024.
- Karimov B., "To'qimachilik sanoatida eksport faoliyatini rivojlantirish istiqbollari", Xalqaro moliya va hisob jurnali, №2, 2024.
- Smith J., Brown T., "Digital Financial Management in Textile Industry", Journal of Industrial Economics, vol. 15, no. 3, 2024.
- Rasulov A., "Sanoat korxonalarida investitsion faoliyatni moliyalashtirish masalalari", Moliya va bank ishi, №1, 2025.
- O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, "To'qimachilik sanoatini rivojlantirish dasturi", Toshkent, 2024.
- Ahmedov S., "To'qimachilik korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash usullari", Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, №3, 2025.
- Baratova Dinora Alisherovna. (2025). O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 23–24. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/341

To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayoni paxta xomashyosini qayta ishlashdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksportga chiqarishgacha bo'lgan murakkab zanjirni qamrab oladi. Ushbu jarayonda pul mablag'larining aylanish davri nisbatan uzoq bo'lib, bu likvidlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, eksport tushumlarining kechikishi, debitorlik qarzlarning ortishi hamda xomashyo xaridiga bo'lgan katta ehtiyoj korxonalar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda revolver kreditlash mexanizmini keng joriy etish dolzarb hisoblanadi. Ushbu mexanizm korxonalarining likvidligini oshiradi, moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini kafolatlaydi hamda eksport faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois tijorat banklari tomonidan to'qimachilik korxonalarini va klasterlar uchun revolver kredit liniyalarini kengaytirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash mamlakat sanoat salohiyatini oshirish, eksport hajmini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatiga inflyatsiya darajasi, xomashyo narxlarining o'zgarishi, energiya resurslari xarajatlari hamda xalqaro bozordagi raqobat kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar natijasida korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ishlab chiqarish xarajatlari darajasi, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi, investitsion faollik va eksport salohiyati bevosita ta'sir qilishi aniqlandi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqamli boshqaruv tizimlarini qo'llash korxonalarining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim to'qimachilik korxonalarida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi yetarli emasligi, kredit yuklamasining yuqoriligi va eksport bozorlari diversifikatsiyasining cheklanganligi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi. Shu sababli korxonalarda zamonaviy moliyaviy menejment usullarini qo'llash va strategik rejalashtirish tizimini rivojlantirish zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- to'qimachilik korxonalarida moliyaviy monitoring va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
- ishlab chiqarish xarajatlarni qisqartirish maqsadida energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish;
- eksport geografiasini kengaytirish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarini tatbiq etish;
- bank kreditlari va investitsiya mablag'laridan samarali foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish;
- mahalliy xomashyodan chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- davlat tomonidan soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish.

Umuman olganda, to'qimachilik sanoati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kuchaytirish hamda mamlakat sanoatining raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.